

**ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION VA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI**

**Olimova Yorqinoy Mashrabovna**

*Farg'ona davlat universiteti amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya :** *innovatsion faoliyat-pedagogning o'z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta'limdagi innovatsiyalar va innovatsion faoliyat haqida barqaror, hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar va innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror va hammaga ma'qul bo'lgan ilmiy tasavvurlar tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e'tirof etish lozim.*

**Kalit so'zlar:** *texnologiya, innovatsion, kontsepsiya, resurslar, tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik jamoalar, parametrlar, ta'lim innovatsiyasi. Kalit so'zlar: texnologiya.*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ  
ИННОВАЦИОННЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В СОВРЕМЕННОЙ  
СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ.**

**Олимова Йоркиной Машрабовна**

*Студент факультета прикладной психологии Ферганского  
государственного университета.*

**Аннотация:** *Инновационная деятельность подразумевает творческий подход педагога к освоению существующих форм и инструментов совершенствования своей профессии. Следует также признать, что классификации устойчивых, общепринятых научных представлений об инновациях и инновационной деятельности в образовании еще не полностью сформировались.*

**Ключевые слова:** *технология, инновационная, концепция, ресурсы, организационные, методические, психологические, педагогические коллективы, параметры, образовательная инновация. Ключевые слова: технология.*

**THE PSYCHOLOGICAL IMPORTANCE OF USING INNOVATIVE AND  
INTERACTIVE METHODS IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM**

**Olimova Yorkinoy Mashrabovna**

*Student of applied psychology at Fergana State University e-mail:  
olimovismoiljon22@gmail.com*

**Annotation:** *Innovative activity is a creative approach of a teacher to the acquisition of existing forms and means of professional development. It should also be acknowledged that the classifications of sustainable, universally accepted scientific ideas about innovation and innovative activity in education and sustainable and popular scientific ideas about innovative pedagogical activity have not yet been perfectly composed.*

**Key words :** *technology, innovation, concept, resources, organizational, methodological, psychological, pedagogical teams, parameters, innovative teaching.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2018-yilga faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili deb nom berishni taklif etdi. Davlatimiz rahbari innovatsiyaning ahamiyati to'g'risida quyidagilarni ta'kidladi: «Innovatsiya bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak». 2018-yilda respublikamizda innovatsiyalarni rivojlantirishning asosiy vazifalari qatorida quyidagilar belgilandi: «Kelgusi yilda ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, buning uchun zarur moliyaviy resurslarni safarbar etish, ushbu jarayonda iqtidorli yoshlar ishtirokini, ijodiy g'oya va ishlanmalarni har tomonlama qo'llab quvvatlash vazifasi e'tiborimiz markazida bo'ladi» [1]

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g'oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin «innovatsiya» so'zining ma'nosiga biroz to'xtalishimiz lozim. Innovatsiya tushunchasi (lotincha novus - yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo'llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni bir sohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o'rganib firmalar foyda olish uchun «innovatsion siyosatni» butun bir tizim sifatida o'zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo'g'inini yangilash bo'yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiy izlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar.

O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar

o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o'qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o'zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya – natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), amaliy jihatlarda g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. [2] Pedagogik innovatsiyalar samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi.

Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin.

G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir. Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Mazkur innovatsiyalar tajribasi sinovdan o'tkazilib, ob'ektiv baholangandan so'ng ommaviy tarzda qo'llash uchun taqdim etiladi. Keng ommalashgan, ijobiy natijalarga erishish imkonini beradigan innovatsion usullardan foydalangan holda o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini

bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rang-barang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo'llash talab etiladi. Shu maqsadda bo'lajak o'qituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini qo'yish lozim[2]. Pedagogika fanida ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bogg'iq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy-pedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, ancha natija past bo'adi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. [3]

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o'rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta'kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, o'qituvchilar uni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta'kidlaydilar. Ko'pincha muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi va umidsizlikka olib keladi, yangilikka soviydi. Boshqa bir tuzilmani (hozir aytilganiga juda yaqin) aniqlash mumkin. Bu moddiy ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalar nazariyasidan olingan innovatsiya genezisining tuzilishi. Ammo o'quvchi yetarlicha rivojlangan tasavvurga ega bo'lsa, maktabdagi innovatsion jarayonlarga o'tish juda qulay: g'oyaning paydo bo'lishi, rivojlanishi, dizayn (qog'ozda nima bor), ishlab chiqarish, (ya'ni amaliy ishda o'zlashtirish) boshqa odamlar tomonidan foydalanish. [4]

Yuqoridagilardan tashqari har qanday innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g'oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan mikroinnovatsion jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon.

O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo'naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // «Xalq so'zi» gazetasi, 2017 yil 23 dekabr
2. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish. I Monografiya. – T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
3. Mochalova N.M. Maktabning metodik ishini tashkil etishning innovatsion yondashuvlari: O'quv qo'llanma. – Ufa, 2002. – 86 bet Slastenin V.A., Podimova L.S. Pedagogika: innovatsion faoliyat. – M., 1997
4. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik / A.P. Panfilov. – M., Akademiya, 2009 y.